O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASINING TADBIRKORLIK, RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA SANOAT MASALALARI QO‘MITASI

2025-yil 18 dekabr 04/7-01-5054-sonli Toshkent sh.

Hurmatli xonimlar va janoblar,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi nomidan Iteca Exhibitions va uning hamkorlari, ICA Eurasia Group va Central Asia Congresses (CCA), tadbirlar ishtirokchilari va mehmonlarini qutlashdan mamnunman.

O'zbekistonning bugungi kunda jadal iqtisodiy rivojlanishi eng yaxshi xalqaro amaliyotlarni o'z ichiga olgan mustahkam qonunchilik bazasiga tayanadi. Qo‘mitamiz parlamentning ushbu yo‘nalishdagi maxsus qo‘mitasi sifatida iqtisodiyotning turli sohalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy normalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro ko‘rgazmalar va konferensiyalar samarali muloqot platformasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular xorijiy investorlarga O‘zbekiston bozorining istiqbollarini baholash va qonunchiligimiz tomonidan taqdim etilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

Iteca Exhibitions tomonidan tashkil etiladigan tadbirlar an’anaviy ravishda biznes hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otadi, innovatsiyalar va yangi biznes imkoniyatlariga kirish imkonini beradi.

Barcha mehmonlar va ishtirokchilarga samarali faoliyat, muvaffaqiyatli muzokaralar va yangi istiqbolli shartnomalarga erishishni tilayman!

Qo‘mita raisi **B.M. Bekmurodov**